



XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2024 - yil 26 - yanvar

VI-95-4-7-0-K/24

Samarqand viloyati hokimligi

**Samarqand viloyatida 2024-yilda yuridik va jismoniy shaxslar bo‘yicha
qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun shahar va tumanlar
kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkalarini
tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-6121сон Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 21-dekabrdagi (03/41-40/1472-son) xati, viloyat Davlat soliq boshqarmasining 2024-yil 3-yanvardagi (19/10-00133-son) murojaati, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi 2024-yil 3-yanvardagi (02/02-38/3-son) xulosasi, viloyat hokimi birinchi o‘ribbosari kotibiyati mudiri R.Mahqulovning 2024-yil 4-yanvardagi (03/01-30-son) bildirisiga asoslanib, xalq deputatlari viloyat Kengashining oltinchi chaqiriq, to‘qson beshinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

Samarqand viloyatida 2024-yilda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq o‘lchamda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 1-ilovaga;

Samarqand viloyatida 2024-yilda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy shaxslar bo‘yicha mutloq o‘lchamda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun, shuningdek, jismoniy shaxslarga berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalaridan tashqari) qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-6121-son Farmoni bilan, xalq deputatlari shahar va tumanlar Kengashlariga mazkur qarorning 1 va 2-ilovalariga muvofiq tasdiqlangan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlardan kelib chiqqan holda, bazaviy soliq

stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida qayta belgilash huquqi berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Viloyat hokimligi axborot xizmati rahbari – matbuot kotibi (M.Mirzayev), viloyat hokimligi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi” (N.Norbekov) ushbu qarorni “Zarafshon” va “Самаркандский вестник” gazetalarida rasman e’lon qilinishi va viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (F.Nasrullayev) va viloyat hokimining birinchi o‘ribbosari (F.Abilov) zimmasiga yuklansin.

5. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



S.Usmonov

Xalq deputatlari Samarqand viloyat
Kengashining
2024-yil 26-yanvardagi
VI-95-4-7-0-K/24-son qaroriga
1-ilova

**Samarqand viloyatida 2024-yilda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun
yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq o‘lchamda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga
qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar**

| T/R | Hudud nomi | Kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar |
|-----|----------------------|--|
| 1 | Samarqand shahar | 1,29 |
| 2 | Kattaqo‘rg‘on shahar | 1,15 |
| 3 | Oqdaryo tumani | 0,75 |
| 4 | Bulung‘ur tumani | 0,75 |
| 5 | Jomboy tumani | 0,75 |
| 6 | Ishtixon tumani | 0,62 |
| 7 | Kattaqo‘rg‘on tumani | 0,63 |
| 8 | Qo‘shrabot tumani | 0,60 |
| 9 | Narpay tumani | 0,75 |
| 10 | Payariq tumani | 0,75 |
| 11 | Pastdarg‘om tumani | 0,76 |
| 12 | Paxtachi tumani | 0,61 |
| 13 | Samarqand tumani | 0,76 |
| 14 | Nurobod tumani | 0,60 |
| 15 | Toyloq tumani | 0,76 |
| 16 | Urgut tumani | 0,75 |

*Soliq va byudjet siyosatining 2024-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq, yuridik shaxslarga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha 1 hektar uchun bazaviy soliq stavkasi 44,0 mln.so‘m belgilangan.

Xalq deputatlari Samarqand viloyat
Kengashining
2024-yil 26-yanvardagi
VI-95-4-7-0-K/24-son qaroriga
2-ilova

**Samarqand viloyatida 2024-yilda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun
jismoniy shaxslar bo‘yicha mutloq o‘lchamda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga
qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar**

*(bundan dehqon xo‘jaligini yuritish uchun, shuningdek, jismoniy shaxslarga berilgan qishloq
xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalari mustasno)*

| T/R | Hudud nomi | Kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar |
|-----|----------------------|---|
| 1 | Samarqand shahar | 1,27 |
| 2 | Kattaqo‘rg‘on shahar | 1,09 |
| 3 | Oqdaryo tumani | 0,60 |
| 4 | Bulung‘ur tumani | 0,60 |
| 5 | Jomboy tumani | 0,72 |
| 6 | Ishtixon tumani | 0,60 |
| 7 | Kattaqo‘rg‘on tumani | 0,60 |
| 8 | Qo‘srbabot tumani | 0,60 |
| 9 | Narpay tumani | 0,60 |
| 10 | Payariq tumani | 0,60 |
| 11 | Pastdarg‘om tumani | 0,60 |
| 12 | Paxtachi tumani | 0,60 |
| 13 | Samarqand tumani | 0,73 |
| 14 | Nurobod tumani | 0,60 |
| 15 | Toyloq tumani | 0,72 |
| 16 | Urgut tumani | 0,60 |

*Soliq va byudjet siyosatining 2024-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi
munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va
qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq, jismoniy
shaxslarga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlarning 1 kv.m uchun bazaviy soliq
stavkasi 394 so‘m belgilangan.